ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА БАНДЛИК ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI

КАМБАҒАЛЛИКДАН ФАРОВОНЛИК САРИ: ПАРТИЯВИЙ ЁНДАШУВ ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР

мавзусида республика илмий-амалий конференцияси
мақолалар тўплами

26 сентябрь, 2025 йил.

«ILM-FAN-MA'NAVIYAT»
NASHRIYOTI -2025

UDK: 943.75(045)
Т 20
Камбағалликдан фаровонлик сари: партиявий ёндашув
ва амалий ташаббуслар” мавзусидаги республика
илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2025 йил 26 сентябрь).
– Қарши. «ILM-FAN-MA’NAVIYAT» нашриёти, 2025. –427 бет.

Масъул муҳаррир:

У.Иноятов – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Халқ демократик партияси фракцияси раҳбари, Ўзбекистон Халқ демократик партияси Марказий Кенгаши раиси, педагогика фанлари доктори, профессор.

Таҳрир ҳайъати:

О.Иминов, Ф.Шарипов, Ғ.Маҳаммаджанов, А.Қурбанов, Ж.Кабиржанов.

Тақризчилар:

И.Турсунов – ТДИУ, иқтисод фанлари доктори профессор,

Д.Аҳмедов – иқтисод фанлари доктори, профессор

2025 йил 26 сентябрь Ўзбекистон Халқ демократик партияси, Камбагалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Самарқанд вилоят ҳокимлиги, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтибилан ҳамкорликда 26 сентябрь куни Самарқанд шаҳрида “Камбагалликдан фаровонлик сари: партиявий ёндашув ва амалий ташаббуслар” мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси бўлиб ўтди.

Илмий-амалий анжуман ялпи йигилиш билан биргаликда 2 та шўъбада ўз ишини олиб борди. Тадбирда камбагалликни қисқартириш, инсон капиталини ҳар томонлама ривожлантириш, ҳар бир инсонга шароит ва имконият беришдек эзгу ҳаракат ва ташаббусларни тўлиқ қўллаб-қувватлашини, бу йўлдаги режа ва кўрсаткичларга эришиш ўзининг долзарб сиёсий мақсади эканлиги, камбагалликни қисқартириш бўйича давлат ва партия сиёсати самарадорлиги, ҳудудларда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий лойиҳалар натижалари, ёшлар ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлашнинг янги механизмлари, фуқароларнинг тадбиркорликка жалб этилиши ва иш ўринлари яратиш орқали даромад манбаларини кенгайтириш, илмий жамоатчилик ва фуқаролик институтларининг бу жараёндаги ўрни ҳақида фикр алмашинилди ҳамда илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди. Ушбу мақолалар тўпламидан профессор-ўқитувчилар, илмий ходимлар, мустақил тадқиқотчилар, талабалар ва амалиётчилар фойдаланишлари мумкин.

ISBN 978-9910-

© «ILM-FAN-MA’NAVIYAT» nashriyoti, 2025 yil.

S.Mamurov. O‘zbekistonda xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari..... 216
G‘.Ergashev. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda bandlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlar..... 220
Z.Artikov. Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirishda savdo xizmatlarining o‘rni..... 226
Z.Artikov. Kambag‘allikni qisqartirishda xizmat ko‘rsatish sohasidagi investitsiyalarning samaradorligi..... 231
A.Raxmatov. Mintaqalar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va bandligini ta’minlashning metodologik asoslari..... 236
A.Raxmatov. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning metodologik asoslari va uni kambag‘allikni qisqartirish siyosati bilan uyg‘unlashtirish yo‘llari..... 241

2-ШЎЪБА. КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА БАНДЛИК СОҲАСИДА ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ҲАМДА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ

Sh.Mirzayeva. Innovatsion g‘oyalar va ijtimoiy loyihalar orqali xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash: kambag‘allikni kamaytirishdagi strategik yondashuv..... 248
Sh.Mirzayeva. Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish orqali davlat siyosatini takomillashtirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash..... 254
Ғ.Химматова. Стратегии повышения конкурентоспособности сектора услуг по сокращению бедности и обеспечению хороших рабочих мест..... 260
A.Akbarov. Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida innovatsion g`oyalarni rivojlantirish aholi turmush farovonligini oshirishdagi o`rni..... 266
Q.Tursunboyev. Transport xizmatlari sohasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalasi..... 269
A.Sa’dullayev. Kambag‘allikni yengishda psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati..... 280
Sh.Ibrogimov. Hududlarda yashil iqtisodiyot asosida bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish..... 283
M.Oktamov, Ezoza Fayzullayeva. Innovative approaches to improving efficiency in the labor market..... 286
А.Умаралиев. Камбағалликдан фаровонлик сари: партиявий ёндашув тошкент вилояти мисолида..... 290

To‘rtinchidan, hududiy infratuzilmani rivojlantirish orqali chekka hududlarda xizmat ko‘rsatish faoliyatini faollashtirish mumkin. Buning uchun:

— Transport, aloqa, internet va elektr energiyasi kabi infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish;

— Mahalliy servis klasterlarini shakllantirish va ularni davlat dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlash zarur.

Beshinchidan, xizmatlar sektorida investitsion samaradorlikni baholash va monitoring qilish tizimini joriy etish zarur. Buning uchun:

— Xizmat loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini muntazam tahlil qilish;

— Raqamli ko‘rsatkichlar asosida investitsiyaning kambag‘allik darajasiga ta’sirini o‘lchab borish tizimini ishlab chiqish lozim.

Xizmat ko‘rsatish sohasi – bu nafaqat iqtisodiy o‘sish omili, balki kambag‘allikka qarshi kurashning kuchli vositasidir. Agar bu sohadagi investitsiyalar strategik yondashuv asosida boshqarilsa, ular orqali barqaror bandlikni ta’minlash, daromadlarni oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash mumkin. Shunday ekan, xizmatlar sektoriga investitsiyalarni ko‘paytirish bilan birga, ularning sifatli boshqaruvi va natijadorligini ta’minlash ustuvor yo‘nalish bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-avgustdagi PQ–330-son qarori “Hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to‘g‘risida statistik ma’lumotlar. https://stat.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ma’lumotlari (2024). Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi. https://chamber.uz.

4. Karimova, D. (2023). “Kichik biznes va xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning mintaqaviy xususiyatlari”. Yosh olimlar jurnali, №9, 33–38-bet.

MINTAQALAR BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH VA BANDLIGINI TA’MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

A.Raxmatov,
O‘zbekiston Respublikasi,

Buxoro davlat texnika universitetining
mustaqil tadqiqotchisi, i.f.f.d., dotsent

Bugungi kunda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta’minlashda turizm sohasi muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Turizm nafaqat hududlar iqtisodiyotiga sezilarli darajada to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va daromad-lar olib kiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy aholi bandligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ularning mehnat bozoridagi talabga mos keli-shini ta’minlash mintaqaviy rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

So‘nggi yillarda turizm sohasidagi global va mahalliy tendensiyalar, jumladan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatining oshirilishi va ekoturizm kabi yangi yo‘nalishlarning rivojlanishi kadrlar tayyorlash tizimini ham tubdan o‘zgartirishni talab qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy ta’lim va malaka oshirish dasturlarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Maqolada turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashning metodologik asoslari, bandlikni ta’minlash mexanizmlari va mintaqalar barqaror rivojlanishiga turizm soha-siga kadrlarining ta’siri tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularga innovatsion yechimlar taklif etiladi, bu orqali turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlar belgilab beriladi.

Turizm sohasi mintaqalar iqtisodiyotining eng tez o‘sib borayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Bu soha nafaqat hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar orqali valyuta kirimiga sabab bo‘ladi, balki mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratadi, biznes tarmoqlarini rivojlantiradi va infratuzilmani yaxshilashga ko‘maklashadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq, turizm sohasining iqtisodiy samaradorligi bilan birga ijtimoiy va ekologik omillarni ham hisobga olish zarur. Shu nuqtai nazardan, malakali kadrlar tayyorlash jarayoni mintaqaviy strategiyaning asosiy bo‘g‘ini sifatida ko‘riladi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishda bir nechta muhim komponentlar mavjud.

Birinchidan, kasbiy ta’lim va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish zarur. Turizm sohasiga oid zamonaviy o‘quv dasturlarini yaratish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim berish va innovatsion pedagogik usullarni keng joriy etish bu

boradagi asosiy yo‘nalishlardandir. Xususan, turizm menejmenti, mehmondo‘stlik xizmati, sayyohlik marketingi, ekologik turizm va raqamli xizmatlar kabi sohalar bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchidan, ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bozor ehtiyojlarini muntazam tahlil qilib borish va ularning o‘zgarishlariga tezkor javob qaytarish orqali malakali mutaxassislar soni va sifati oshiriladi, hamda malaka nomuvofiqligi muammosi kamaytiriladi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Raqamli ta’lim platformalari, virtual amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiya usullari va interaktiv trenin-glar nafaqat bilim darajasini, balki kadrlarning real ish sharoitlariga moslashuv-chanligini ham oshirishga xizmat qiladi.

Malakali kadrlar mintaqaviy turizm salohiyatini to‘liq amalga oshirishda kalit omil hisoblanadi. Ular nafaqat mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatadi, balki hududning ijtimoiy va madaniy muhitini rivojlantirishga, ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, professional kadrlar innovatsion loyihalarni amalga oshirish va yangi biznes modellari yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm sohasida tayyorlangan kadrlarning samarali bandligini ta’minlash uchun bir qator muhim mexanizmlar mavjud.

Birinchidan, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlan-tirish zarur. Ish beruvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish, o‘quvchi va talabalar uchun stajirovkalar hamda amaliyot o‘tash imkoniyatlarini yaratish orqali mehnat bozorining talablariga mos kadrlarni yetishtirish mumkin bo‘ladi. Bu esa ta’lim bilan amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mahalliy mehnat bozorini chuqur o‘rganish lozim. Har bir hudud-dagi turizm tarmoqlarining o‘sish sur’atlari, mavjud bozor segmentlari va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash orqali kadrlar soni va sifati o‘rtasida muvozanatga erishish mumkin. Bu yondashuv mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Uchinchidan, bandlik xizmatlari va qo‘llab-quvvatlash dasturlarining samarador-ligini oshirish talab etiladi. Turizm sohasi vakillari uchun ish o‘rinlari yarmarkalarini tashkil etish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli kurslarni joriy etish hamda yangi startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bu yo‘nalishdagi muhim vositalar sirasiga kiradi.

O‘zbekistonda turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi, ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi nomuvofiqlik, amaliyotga yo‘naltirilmagan ta’lim dasturlari hamon dolzarb muammolar hisoblanadi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun:

- Ta’lim dasturlarini doimiy yangilab borish va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish;
- Turizm sohasida xalqaro standartlar asosida sertifikatlash tizimini joriy etish;
- Davlat, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Yoshlarni turizm sohasiga qiziqtirish va ularning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish zarur.

1-jadval

O‘zbekiston bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash va bandlik tendensiyalari[42]

№	Ko‘rsatkich turlari	Amaldagi holat	Muammolar	Taklif etilgan chora-tadbirlar
1	Dual ta’lim shakli joriy etilishi	Turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohalarida dual ta’lim, blok-modul tizimi 2024/2025 yilidan — amaliyot joylari belgilanmoqda.	Amaliyot bazalarining yetishmasligi, nazariy-amaliy nisbatdagi nomuvofiqlik	Amaliyot joylari va stajirovkalarni kengaytirish, korxona-ta’lim muassasalari hamkorligi
2	Talab va taklif nisbati	Turizm mintaqalarida mehmonxonalar, joylashtirish vositalari kengaymoqda, xizmat ko‘rsatish sohasida kadrlar ehtiyoji oshmoqda.	Malaka oshirish yo‘nalishlarida raqamli, til ko‘nikmalari va xizmat ko‘rsatishdagi sifat kamchiliklari	Kurslar, sertifikatlash, til va xizmat ko‘nikmalarini majburiylashtirish
3	Bandlik va ish imkoniyatlari	Mehmonxona va joylashtirish vositalarida joylar ko‘paymoqda hamda yangi mehmonxonalar ochilishi yangi ish o‘rinlarini yaratmoqda.	Ish o‘rinlar mavsumiy bo‘lishi, malaka talabining pastligi, xizmat sifati pastligi	Barqaror ish joylarini yaratish, ko‘nikmalarni oshirish va xizmat standartlarini kuchaytirish

Turizm sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash O‘zbekistonda bandlikni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Quyidagi jadvalda malakali kadrlar tayyorlash holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud bo‘lib, amaliy ta’lim va xizmat ko‘nikmalariga talab ortib bormoqda.

[42] Muallif ishlanmasi

Muammolarni hal etishda ta’lim va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, raqamli va til kompetensiyalarini oshirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirib, uni mintaqaviy barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylantirish yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2022-yilda mamlakatda 833 ta yangi mehmonxona foydalanishga topshirilgan, joylashtirish vositalari soni 1442 taga, mehmonxona xonalarining umumiy soni esa 33,4 mingga yetgan. Bu esa nafaqat sayyohlar oqimini oshirish, balki bandlik va xizmatlar sifatini ta’minlash bo‘yicha malakali kadrlar ehtiyojining ham sezilarli darajada ortishiga olib keldi.

Shu bilan birga, mavjud muammolar — kadrlar tayyorlashdagi nazariy-amaliy tafovut, xizmat ko‘rsatishdagi past sifat, chet tillarini bilishdagi zaiflik, raqamli texnologiyalarni yetarli darajada o‘zlashtirmaslik — sohaga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Dual ta’lim shaklining joriy qilinayotgani, modul tizimi asosida o‘quv dasturlarining ishlab chiqilishi ijobiy bosqich bo‘lsa-da, amaliyot bazalarining yetishmasligi, o‘quv dasturlarining bozor ehtiyojiga mos emasligi kabi tizimli muammolar mavjudligicha qolmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni keltiraman:

Birinchidan, ta’lim va amaliyotni integratsiyalash zarur. Turizm yo‘nalishidagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari korxonalar bilan bevosita hamkorlikda o‘quv-amaliy dasturlar ishlab chiqishi va dual ta’lim shaklini keng joriy qilishi lozim. Amaliyot bazalarini kafolatlovchi shartnomaviy asoslar yaratilib, har bir talabaning amaliy faoliyati nazorat qilinishi kerak.

Ikkinchidan, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi takomillashtirilishi zarur. Ishlab turgan xodimlar uchun xizmat ko‘rsatish madaniyati, xorijiy tillar, mehmondo‘stlik etikasi bo‘yicha qisqa muddatli kurslar, onlayn treninglar va xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimlari yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Uchinchidan, raqamli va texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim. Talabalar va xodimlarga CRM tizimlari, onlayn bron qilish platformalari, sayyohlik marketingi, virtual gidlik va simulyatsiya asosida xizmat ko‘rsatish texnologiyalarini o‘rgatish lozim.

To‘rtinchidan, hududiy bandlik siyosatini turizmga yo‘naltirish zarur. Har bir mintaqada mavjud turizm salohiyatiga mos kadrlar tayyorlash siyosati ishlab chiqilishi, ayniqsa agroturizm, ekologik turizm, etnoturizm yo‘nalishlarida mahalliy aholining bandligi ta’minlanishi kerak.

Beshinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosida ta’lim klasterlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Xususiy sektor ishtirokida mehmondo‘stlik o‘quv markazlari, amaliy laboratoriyalar tashkil etilishi, korxonalar tomonidan buyurtma asosida kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Oltinchidan, monitoring va baholash tizimi joriy qilinishi lozim. Har yili turizmda bandlik, kadrlar sifati, xizmat madaniyati darajasi bo‘yicha reytinglar tuzish, natijalarga asoslangan holda ta’lim dasturlarini yangilab borish amaliyoti joriy etilishi zarur.

Turizm sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqdir. Chunki u bandlikni oshiradi, ayniqsa ayollar, yoshlar va chekka hududlar aholisi uchun ish o‘rinlarini yaratishda katta rol o‘ynaydi. Shunday ekan, malakali kadrlar tayyorlash va ularning barqaror bandligini ta’minlash orqali turizmni milliy daromad manbaiga aylantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “2019–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4095-sonli Qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-fevraldagi "Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ularning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.

3.“Aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 6 may PQ-2960 son Qarori.

4.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.

5.www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH SIYOSATI BILAN UYG‘UNLASHTIRISH YO‘LLARI

A.Raxmatov,
O‘zbekiston Respublikasi,